

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIY SHE’RIYATIDA QISH TASVIRI POETIKASI

Farangis Abdulloyeva

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti,
e-mail: gorakozaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Badiiy adabiyotda fasllardan ko’pincha, tabiatdagi o’zgarishlarni, unga muvofiq holda inson his-tuyg ‘ularini va hayot aylanishini tasvirlashda vosita sifatida foydalaniladi. She’riyatda fasllardan foydalanish ko’pincha ramziy ma ’no kasb etib, metaforalar ijodkorning badiiy mahoratini aks ettiradi. Ulug ‘so’z san’atkori Alisher Navoiy o’z she’rlarida fasllardan turli maqsadlar va holatlarda foydalanib, go’zal badiiy topilmalar yaratgan. Ushbu maqolada ulug ‘mutafakkir shoir she’riyatidagi qish fasli tasviri bilan bog ‘liq ayrim g ‘azallar tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar: she’riyat, mahorat, fasl, mazmun, uslub, peyzaj, tasvir, badiiy san’atlar, tashbeh, tanosub.

Аннотация: В художественной литературе времена года часто используются как инструмент для описания изменений в природе и, соответственно, человеческих эмоций и жизненного цикла. Использование времен года в поэзии часто приобретает символическое значение, а метафоры отражают художественное мастерство художника. Алишер Навои, великий художник слова, создал прекрасные художественные решения, используя в своих стихах времена года для разных целей и ситуаций. В данной статье анализируются некоторые газели, связанные с образом зимней поры года в поэзии великого поэта-мыслителя.

Ключевые слова: поэзия, мастерство, время года, содержание, стиль, пейзаж, образ, изобразительное искусство, аллегория, пропорция.

Annotation: In fiction, the seasons are often used as a tool to describe changes in nature and, by extension, human emotions and the life cycle. The use of seasons in poetry often takes on symbolic meaning, with metaphors reflecting the artistic skill of the artist. Alisher Navoi, a great word artist, created wonderful artistic solutions using the seasons in his poems for different purposes and situations. This article analyzes some gazals associated with the image of the winter season in the poetry of the great poet-thinker.

Key words: poetry, skill, season, content, style, landscape, image, fine art, allegory, proportion.

Alisher Navoiy ijodi o’zining nihoyatda go’zal o’xshatishlarga boyligi, yangicha topilmalari bilan ajralib turadi. Navoiy ijodida har bir so’z, har bir tushuncha yangi-yangi ma’nolarni kasb etganligini ko’rishimiz mumkin. Bu fasllar bilan bog ‘liq baytlarda ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Alisher Navoiyning peyzaj yaratish mahorati haqida prof. V.Zohidov: “Navoiy tabiat tasviriga juda usta san’atkor. U har bir manzarani nozik tomonlari bilan o’quvchi ko’z o’ngida gavdalantirish qobiliyatiga ega”, – deydi. Alisher Navoiy g ‘azallarida, boshqa asarlarida bo’lgani kabi, tabiat manzaralariga, xusan, yil fasllari tasviriga qayta-qayta murojaat etar ekan, ularga xos xususiyatlarni qahramonlarning ruhiy dunyosi bilan bog ‘laydi. Navoiy yil fasllari tasvirlari orqali inson qalbini ochishda tabiat birlamchi vosita ekanligini g ‘azallari misolida ham ko’rsatib beradi. Uning “Xazoyin ul-maoniy” devoni tarkibidagi

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

g‘azallarida yil fasllari bilan bog‘liq badiiy jihatdan yuksak baytlarni ko‘rishimiz mumkin. Yil fasllari, ularning rang-barang ko‘rinishi va manzaralari, fasllarga xos xususiyat va imkoniyatlardan badiiyat nazokatini ko‘taruvchi vosita sifatida mohirona foydalanadi. Alisher Navoiy she’riyatida tabiat tasviri, shoir she’rlarining badiiy qimmati, ifoda vositalari hamda ulardan foydalanishdagi mahorati qirralarini ochib bergen olim Y.Is’hoqovning bu boradagi fikrlari alohida e’tiborga molik. Shoir she’riyatida ramziy-istioraviy tasvir usullarini g‘azallar misolida bir necha guruhga bo‘lgan olim Navoiyning turkum g‘azallarini tabiat manzaralari asosiy o‘rin tutgan durdonalar sifatida e’tirof etadi: “Peyzaj lirikasining haqiqiy namunalari hisoblangan ana shunday g‘azallarda shoir tabiat tasviridan lirik qahramonning ruhi va kechinmalarini ochib berishda bir fon sifatida foydalanadi. Aniqrog‘i, tabiat tasvirida har bir detal lirik qahramon holatining ma’lum tomonini ochib berishga xizmat qiladi”. [Is’hoqov, 1983:125] Xususan, shoir “Navodir ush-shabob” devonining 55-g‘azalida qish faslining xarakterli jihatlaridan o‘rinli foydalanish orqali oshiqning ruhiy holatini, chekayotgan iztirobini teranroq anglatishga harakat qiladi:

*Gulruhi ra ’noqadim chun bog ‘ tavf aylar borib,
Infiolidin guli ra ’no qizorib, sarg ‘arib.
Yuz shikof etting tanim, yo ‘q erdi ko ‘nglumdin nishon,
Uylakim o ‘t topmag ‘aylar kulni har yon axtarib.
Sovug ‘ ohimdin yorug ‘luq oz, vale ko ‘p tiyralik,
Qishda ul yanglig ‘ki, tun bo ‘lg ‘ay uzun, kun qisqarib.
Za ‘f vaqtி ko ‘yidin chiqmoq taxayyul aylasam,
Ikki qatla har qadamda tinmoq istarmen horib.
Tutmadim bo ‘g ‘zim sabudek boda tarki aylabon,
May tilarmen piri dayr ollida balkim yolborib.
Soqiyo, lab tashnamen, andoqli, ko ‘k jomi to ‘la
Boda tutsang, sarnigun aylarmen ani sipqarib.
Ey ajal, hijron aro olding Navoiy jonini,
Lutf qilding, jonne andin ani jondin qutqarib.*

G‘azal go‘zal yuzli yorning bog‘ sayriga chiqish tasviri bilan boshlanadi. Navoiy ma’shuqani eslaganda, ta’riflaganda bahor fasli xayoliga keladi, shu sabab qiyosda bahorga doir attributlar keltiriladi. Bu bahorning go‘zalligi – yorning go‘zalligiga, uning yangi hayot nishonasi ekanligi yorning oshiq uchun hayot manbai ekanligi bilan bog‘liq. Shu sabab g‘azal ma’shuqaning bog‘ga kirish va buning natijasida guldag'i o‘zgarishlar bilan boshlanmoqda, gulga to‘la bog‘ va gullarning qizil sariq rangdaligi bahor nishonasi. Yor shu darajada go‘zalki, uning go‘zalligini ko‘rgan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bog‘dagi gullar qizarib sarg‘ayyapti, rangga kiriyapti. Gullarning qizarib sarg‘ayishi tabiiy jarayondir. Navoiy bu hodisani mahorat bilan yorning go‘zalligi darajasini oshirish uchun qo‘llagan va husni ta’lil san’atining go‘zal namunasini yaratgan.

*Yuz shikof etting tanim, yo ‘q erdi ko ‘nglumdin nishon,
Uylakim o ‘t topmag ‘aylar kulni har yon axtarib.*

Ishq ko‘ngilning asl boyligi, borlig‘idir. Oshiq ko‘nglidagi ishq o‘tining so‘nishi – ko‘ngilning zavolidir. Go‘yo allaqachon so‘ngan gulxan kulidan cho‘g‘ axtarish behuda bo‘lgani kabi Ma’shuqa oshiqning kul yanglig‘ tanini parchalab, nimtalab ko‘ngilni topolmasligi tabiiy holdir. Shu o‘rinda tamsil san’atining go‘zal namunasini ko‘rish mumkin. Tasvir ma’shuqadan oshiq holiga kechar ekan ruhiy holat, kayfiyat va tabiat holati ham o‘zgarib boradi. Bunda paradoks yuzaga keladi. Oshiq holati bahorga, hayot, va tiriklikka qarama-qarzi tarzda qish, sovuqlik, qorong‘ulikka, ya’ni og‘ir ruhiy holat, dard ifodasiga ko‘chadi. Bunda oshiq tani ham tikirlikdan yiroqdadek, unda tiriklik nishonasi bo‘lgan ko‘ngil yo‘q.

*Sovug ‘ohimdin yorug ‘luq oz, vale ko ‘p tiyralik,
Qishda ul yanglig ‘ki, tun bo ‘lg ‘ay uzun, kun qisqarib.*

Oshiq ruhiy holati ham, baytdagi tasvir ham quyuqlashib boradi. Oshiqning sovuq ohi, undagi tiyralik – qishga qiyoslanadi va bu oshiqdagi eng og‘ir ruhni, tushkunlikni ifodalaydi. Endi keyingi baytlarda oshiq bu holni o‘zicha anglab undan chiqishga harakat qiladi, ma’shuqaga intiladi. Zero, uni bu holga solgan ham uni qutqaradigan ham ishq. Ishq o‘tida o‘rtanuvchi oshiqlar o‘tli oh urishi an’anaviy tasvir hisoblanadi. Biroq ushbu g‘azal lirik qahramoni ko‘nglidagi ishq o‘ti so‘ngani bois sovuq oh uradi. Ushbu baytda oshiq ruhiy holati qish fasliga oid manzara tasviri vositasida yorqin ifodalangan. Ma’lumki, qish faslida kunlar qisqa, tunlar esa uzun bo‘ladi. Tabiatdagi ushbu hodisa orqali tamsil san’ati yuzaga keltiriladi. Shoir lirik qahramonining sovuq ohida yorug‘likning kamligi, tiyralik, ya’ni qorong‘ulikning ko‘pligini xuddi shu tabiat qonunidan unumli foydalangan holda ajoyib o‘xshatish vositasida tasvirlanadi.

*Za ‘f vaqtி ko ‘yidin chiqmoq taxayyul aylasam,
Ikki qatla har qadamda tinmoq istarmen horib.*

Oshiq Za‘f holatida ya’ni kuchsiz va zaif. Bu ishq tufayli bo‘lsada, boshqa jihatdan qish faslida insонning zaif bo‘lishi tasvirdagi hayotiylikni oshirgan. G‘azalning shu qismidan boshlab Navoiyning go‘zal ishqisi – ma’rifatga yo‘g‘rilgan va haqqa intilgan ishqisi tarannum etiladi. Bu oshiqning boda, may tilashi, piri dayr oldida yolborishi haqqa intilayotgan solik timsolini ifodalaydi. Ishq azobidan o‘rtangan oshiq holsizligi sababli yorning ko‘chasidan ketishni xayol qiladi, ammo bu xayoldidan holsizligi yanada ortib, har qadamida tin olishni xohlaydi. Ya’ni yorga bo‘lgan ishqisi

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALAR”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

shu darajada kuchliki, uning ko‘chasidan ketishni xayol qilishining o‘ziyoq uni xastalantiradi.

Tutmadim bo ‘g ‘zim sabudek boda tarki aylabon,

May tilarmen piri dayr ollida balkim yolborib.

Tasavvufda may, boda, sharob kabi mast qiluvchi ichimliklar ramziy ma’noda qo‘llanilib, ilohiy ishqni anglatishi ma’lum. Ko‘ngilga Olloh ishqini solishda yo‘lboshchi pir, murshid mumtoz adabiyotda mayxonachi, soqiylar, piri dayr singari tasavvufiy istilohlar vositasida ifodalanadi. Ushbu baytda shoir may va boda so‘zlarini har ikkala ma’noda qo‘llaydi. Lirik qahramon o‘z ma’nosidagi bodani tark qilib, ma’jозиy ma’nodagi may, ya’ni ishq tilab piri dayr oldida yolvoradi. Sabu, boda, may va piri dayr so‘zlarining bir baytda qo‘llanilishi badiiy jihatdan tanosub san’atini yuzaga keltirgan.

Soqiyo, lab tashnamen, andoqki, ko ‘k jomi to ‘la

Boda tut sang, sarnigun aylarmen ani sipqarib.

Ushbu baytda oshiq ishqqa tashna, ma’rifatga tashna, holbuki Navoiy uchun osmon, samovot ishq mazhari. Baytdagi tasvirning yana bir jihatni bor: ko‘k jomi to‘la – yomg‘irga to‘lib turgan osmon va labtashna unga intilayotdan, yomg‘irni yog‘ishini kutayotgan oshiq. Shoir g‘azallarida asosiy ma’no baytdan baytga o‘sib boradi, baytlar bir-birini mantiqan taqozo qiladi va mazmunan to‘ldiradi. Ushbu g‘azalda ham shu holatni kuzatish mumkin. Oldingi baytdagi kabi bu baytda ham soqiylar, jom va boda singari tasavvufiy istilohlarni uchratamiz. Lirik qahramon soqiyliga murojaat qilib, undan haqiqiy ishq sirlaridan voqif qilishini so‘ramoqda, ishqqa tashna ekanligini aytmoqda, vaholangki, ko‘k jomi to‘la. Ya’ni butun borliq, osmon-u falak Olloh ishq bilan to‘la. Oshiq shu jomdan, bu ishqdan, ilmdan quyilgan mayni sipqormoqchi, ilohiy ishqdan sarmast bo‘lmoqchi. Yuqoridagi kabi bir-biriga mutanosib tushunchalarni qo‘llash orqali tanosub san’ati vujudga kelgan.

Ey ajal, hijron aro olding Navoiy jonini,

Lutf qilding, jonni andin ani jondin qutqarib.

Maqtada esa Navoiy to‘g‘ridan to‘g‘ri ajalga murojaat qiladi va unga go‘yoki o‘z minnatdorchilagini bildiradi. Chunki ajal hijron azobidan qiyalgan oshiq jonini olib unga lutf qiladi. Ishqdan chekayotgan dard jonni ham jismdan bezdirgan, jon ham jismdan qutildi. Navoiyning ajaldan minnatdorligida katta ma’no bor. Bunda oshiqning g‘olibligi ifodalanadi. Uning maqsadga yetganiga ishora qilinadi. aynan shu o‘rinda g‘azalda bejizga qish fasli tilga olinmaganligi ko‘rinadi. Navoiy asarlarida qish fasli insonning ichki o‘zgarish jarayoni va ma’naviy kamolotini ham ifodalaydi. Maqtadagi o‘lim jon uchun yangi hayot nishonasi, endi u ozod va o‘z makonida ma’shuqasi

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

huzurida yangi hayotini boshlaydi. Aslida qish fasli ham tabiat uchun ham yangidan tug‘ilish imkonи va nishonasi. Qish bo‘lmasa bahordan darak bo‘lmagani kabi oshiq o‘lmay turib haqiqiy hayotini boshlay olmaydi.

Ko‘rinadiki baytda qish bir o‘rindagina keltirilgan bo‘lsada, g‘azalning butun mazmuni bilan bog‘lanib ketadi. Navoiy ijodida qo‘llanilgan har bir so‘zning g‘azalda ulkan vazifasi bor. Hech bir so‘z shunchaki qiyos yoki faqatgina go‘zal ifoda yaratish uchun qo‘llanmaydi, g‘azalning g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Navoiy g‘azallarida qish manzarasini yaratar ekan, e’tiborni obrazlarning tashqi va ichki tomonlari mohiyatiga qaratadi. Tabiat tasvirini yaratishda tabiat jismlarining tashqi ko‘rinishiga ham e’tibor qilinadi. Ammo tabiat jismlarining mohiyati bilan ko‘rinishi orasida bog‘lanish bor, albatta. Ayniqsa, qish tasvirida sovuq haqida gap ketar ekan, jism, qahramonlarning mohiyatidagi o‘zgarishlar tasviri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi ko‘rinish borasida olingen taassurot ichki o‘zgarishlar ta’kidi bilan to‘ldiriladi.

Alisher Navoiy asarlaridagi qishning ramziy ma’nolari ancha teran va rang-barangdir. U qish, qiyinchiliklar, umid, qarshilik, o‘zgarish va yangilanish kabi mavzularning ramzi sifatida ishlataladi. Navoiy asarlarida qish inson ichki dunyosining murakkabligi, ma’naviy to‘qnashuvlari, o‘zgarishlarini aks ettiruvchi qudratli timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Bu timsollarning tahlili Navoiy asarlarining teranligini anglash va go‘zallagini his qilish uchun muhim qadamdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 4-tom. –Toshkent, “Fan” 1989.
2. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent, “Fan”, 1983.